

**BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA 100 ICHIDA SONLARNI  
O’RGATISHDA PED-TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH**

**Gulxanova Zuhra Akramjon qizi**  
*Samarqand Davlat Universiteti talabasi*  
[gulxanovazuxra@gmail.com](mailto:gulxanovazuxra@gmail.com)  
+998992163302

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun 100 ichida sonlarni nomerlashga òrgatish,predmetlarni bittalab va guruhlab sanashga òrgatish kabi tushunchalar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** nomerlash,qo’shish,ayirish,teknologiya.

**Annotation:** The following article covers concepts such as teaching to number numbers within 100, teaching to count objects individually and in groups for elementary school students.

**Key words:** numbering, addition, subtraction, technology.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga 100 ichida sonlarni o’rgatishda dastlab birinchi o`nlik sonlarini nomerlash o`rganiladi, bu sonlarni yozish uchun raqamlar kiritiladi, qo`shish va ayirish amallari o`rganiladi, so`ngra 100 ichida sonlarni nomerlash qaraladi, xona tushunchasi, o`nli xonalarga ajratish mumkin bo`lgan sonlarni yozishning pozitsion printsipi ochib beriladi, 2 xonali sonlarni qo`shish va ayirish o`rganiladi, ko`paytirish va bo`lish amallari kiritiladi. Keyin, 1000 ichida sonlarni nomerlash o`rganiladi, bu yerda ko`p xonali sonlarni nomerlashning asosi bo`lgan 3 ta xona (birlar, o`nlar, yuzlar) qaraladi, arifmetik amallar to`g`risidagi bilimlar umumlashtiriladi, yozma qo`shish va ayirish usullari kiritiladi va nihoyat, ko`p xonali sonlarni nomerlash o`rganiladi, sinf tushunchasi qaraladi, raqamlarning egallagan o`rniga, ko`ra qiymatini bilish umumlashtiriladi.

O’qituvchining birinchi navbatdagi ishi maktabga kelgan bolaning qay darajada bilimga ega ekanligini tekshirish.Mashg’ulotlar davomida 1-sinfga kelgan bolaning bilimini baholash,ularning matematik bilimlarini tekshirish,aniqlashdan iborat.Bunda bilimlarni tekshirishdagi atmosfera(muhit) yaxshi bòlishi kerak.

Bolalarning bilimini baholashda o’qituvchi quyidagicha ish olib borishi kerak:

1 Sen sanay olasanmi?,sanachi

2 O’quvchilarga ikki xil rangdagi doirachalarni ko’rsatib ularni sanashini aytishi.Bu doirachalarni sana,ular qancha ekan?

3 Stolga qalamlar qo’yib,stoldagi qalamlar nechta bo’lsa chap qo’linga shuncha qalamlarni ol.

4 Qaysi doirachalar ko’p qizilmi?,ko’kmi?

5 Rasmdan “Sholg’om” ertagi ko’rsatilib, undagi har bir ishtirokchining nechinchi o’rinda turganini va ertakda nechta qahramon borligini aytib berishi so’ralishi kerak.

Birinchi o’nlik sonlarni o’rgatishda tayyorgarlik davri va raqamlar haqida sonlar to’g’risida tanishtiriladi.

Tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi birinchi o’nlik sonlarni o’rgatishda muhim ko’nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

Birinchi mashqlarda, ya’ni dars jarayonida sinfdagi mavjud bo’lgan deraza, eshik, plakatlarni, chiroqlarni, parta, stol, stul va shunga o’xshash narsalarni sanash bajariladi. Bundan so’ng esa qo’lga olib sanash mumkin bo’lgan mayda predmetlarni sanashga qaratiladi. Bu mashqlarni bajarishda har bir o’quvchida 20 tadan iborat sanoq cho’plarining bo’lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bundan tashqari o’quvchilarga uydan maktabga, maktabdan muktab bog’igacha va hokazo harakatlarni sanash, ya’ni qadamlarni sanashi bo’yicha mashqlar ham beriladi.

Sanash jarayonida o’quvchilarni ”qancha” savoli bilan bog’liq bo’lgan savolga javob berishlariga o’rgatish kerak. Ya’ni o’quvchilar sanayotgan narsalar, predmetlar, qadamlar qancha ekanligini bajargan ishi oxirida ayta olishlari kerak va bunda sanoq oxirida aytilgan son ana shu ”qancha” savoliga javob bo’lishini tushuntirish kerak.

Bu bosqich 1-10 gacha bo’lgan nomerlashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqich yuqorida gidek tushuntirilib bo’lgandan so’ng bu mavzuning bosqichini mustahkamlash maqsadida o’quvchilar bilan quyidagi metodlarni bajarish maqsadga muvofiq sanaladi.

### Metod nomi: ”**Qurilishga sayohat**”

**Maqsadi:** O’quvchilarni 1-10 gacha raqamlashga o’rgatishda bir sondan oldin va undan keyin keladigan sonni topish, 1dan 10 gacha bo’lgan sonlar ustida oson amallarni bajara olishdan iborat.

O’yin bosqichma-bosqich bajariladi, bunda o’quvchilarni beshtadan qilib to’rt guruhga bo’lib olamiz. O’yinda magnit taxtachaga uyning poydevoridan tortib to uy to’liq tayyor bo’lgunga qadar bo’lgan jarayonni aks ettiruvchi tasvir yopishtirilib qo’yiladi. Uyning yonidagi yo’lga yengil mashina qoyiladi. Uyning poydevori qurilishidan ustli yopilguncha bo’lgan 5 ta bosqichning har biriga bittadan jami 5 ta kartochkaga yozilgan topshiriqlar tushuntiriladi. Topshiriqlarda bir son olinib undan oldin va keyin keluvchi sonni topish va shu sonlarning ikkitasi ishtirokida misollar berilgan. Eng avval doskaga chiqqan birinchi o’quvchi 1-rasmdagi kartochkani olib, unga yozilgan topshiriqni yechadi. Topshiriq to’g’ri bajarilgandan so’ng o’qituvchi uyning poydevorini bitganini e’lon qiladi. So’ng navbatdagi 2-o’quvchi chiqib, yengil mashinani 2-bosqich tagiga surib qo’yadi. O’quvchi kartochkadagi topshiriqni to’g’ri bajarib bo’lgandan so’ng o’qituvchi uyning devorini bitganligini e’lon qiladi. 3-

o’quvchi chiqib mashinani 3-bosqich tagiga surib qo’yadi.O’yin shu tariqa 5-bosqichga qadar davom etadi.Oxirgi-bosqichda o’quvchi mashinani 5-bosqichga surib qo’ygandan keyin,o’qituvchi uyning bitganligini e’lon qiladi va uyning bitishida faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantiradi.Bu metod yuqoridagi ko’nikmalardan tashqari o’quvchilarda topqirlik,ziyraklik chaqqonlikka oid bilim,malakalar va ularning matematika darsida faolligini yanada oshirishga qaratilgan.

Nomerlashni            o’rganishda            uch            bosqich            ajratiladi:  
1-10,11-20 va 21-100 sonlarni nomerlash.

11-20 gacha bo`lgan va 21-100 gacha ikki xonali sonlarni nomerlash bir-biriga printsipial o`xhash: bu sonlarni og`zaki va yozma nomerlash sanoqda birliklarni o`ntalab guruhashga va sonlarni yozishda raqamlarning o`rin qiymatlari printsipiga asoslanadi.

Shu sababli ikkinchi o`nlik sonlarining o`nli tarkibini o`zlashtirish va bu sonlarni yoza olish ishi 100 ichida sonlarni o’rganishga tayyorgarlik bosqichi bo`lib xizmat qiladi.  
11-20 va 21-100 sonlar bilan tanishtirish quyidagicha reja asosida amalga oshiriladi;

Tayyorgarlik ishi  
Og`zaki nomerlash  
Yozma nomerlash

11-20 sonlarni nomerlashni o’rganishdagi tayyorgarlik ishi «O`nlik» mavzusini takrorlashda o`tkaziladi. Shu maqsadda narsalarni 10 dan oshirib sanashga doir mashqlar (11,12.....) shuningdek narsalarni guruhash lab sanash (juftlab) kiritiladi. Bunday mashqlar o’quvchilarni birinchi o`nlik sonlaridan tashqari ham sonlar mavjud ekanligiga, ularni ko`pligiga, ularni belgilash, atash, hosil bo`lish, qatorida kelish tarkibida bolalarga tanish bo`lgan sonlar orasida ma'lum o`xhashlik borligiga ishontiradi.

2 o`nlik sonlarni og`zaki nomerlashni o’rganishni 10 haqidagi tushunchani shakllantirishdan boshlanadi.

Bolalar cho`plardan 10 tadan qilib bog`lab, 10 ta bir bitta o`nlikni hosil qilishini ko`radilar. So`ngra ular o`ntalik cho`plarni sanash mashqlarini o`nliklarni qo`shish va ayirishni            bajaradilar            ( $2o^n+3o^n=5o^n, 7o^n-3o^n, 4o^n-2o^n$ ).  
Shunday mashqlar asosida o’quvchilar o`nliklarni oddiy birliklar kabi sanash, qo`shish va ayirish mumkin ekan, degan xulosa chiqarishadi.

100 ichida sonlarni nomerlashni o’rganishda o`qituvchining vazifasi:

- o`quvchilarga predmetlarni bittalab va guruhash lab sanashga o`rgatish;
- 100 ichida sonlarni o`qish va yozishga o`rgatish;
- o`ngdan chapga hisoblaganda birliklar va o`nliklar qaysi o`ringa yozilishini o`rgatish;
- u yoki bu xona birliklari yo`qligini qanday belgilashni ko`rsatish;

-birinchi va ikkinchi xona birliklari, xona soni, xona qo`shimchalarining yig`indisi, bir xonali sonlar, ikki xonali sonlar kabi yangi tushuncha va terminlarni o`quvchilar o`zlashtirib olishlariga erishish kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boshlang`ich ta'lim bo`yicha yangi tahrirdagi. Davlat ta'lim standartlari. Boshlang`ich ta'lim. Toshkent: 2005 yil 5-son. 2-50 betlar.
2. Axmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. «Matematika». O`qituvchi kitobi. Toshkent: «Uzinkomtsyentr» - 2003 yil.
3. Axmyedov M va boshqalar. «Matematika 1-darslik». Toshkent: «Uzinkomtsyentr»-2003 yil.
4. Bikboyyeva N.U. va boshqalar. «Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi». O`quv qo`llanma. Toshknt: «O`qituvchi» - 1996 yil.
5. Bikboyyeva N.U. va boshqalar. «Matematika 2-darslik». Toshkent: «O`qituvchi» - 2003yil.
6. Bikboyyeva N.U. va boshqalar. «Matematika 3-darslik». Toshkent: «O`qituvchi» - 2003yil.
7. Bikboyyeva N.U. va boshqalar. «Matematika 4-darslik». Toshkent: «O`qituvchi» - 2003yil.
8. Jumayev M va boshqalar. «1-sinf matematika daftari». Toshkent: «Uzinkomtsyentr»-2003 yil.
9. Jumayev M va boshqalar. «Matematika o`qitish metodikasidan praktikum». Toshkent: «O`qituvchi» - 2004 yil.
10. Istomina va boshqalar. «Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum». Moskva: «Prosvyesheniyye» - 1986 yil.
11. Strekozin. B. P. «Qishloqda oz komplektli mакtabda dars». Pedagogika – 1972 yil.
12. Suvorova. G.F. «Boshlang`ich maktab (oz komplektli) da o`quv jarayonining takomillashtirish». Pedagogika – 1980 yil.
13. L.Sh. Levenberg. «Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi». T – 1985 yil.